

## QUL UBAYDIY IJODI VA TARIXIY AHAMIYATI

To'xtasinova Baxtigul Doniyor qizi

Farg'ona davlat universiteti 3-kurs talabasi

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XVI asr o'zbek adabiyoti va siyosiy hayotida muhim o'rin egallagan shoir hamda davlat arbobi Qul Ubaydiy (Ubaydullaxon)ning hayoti, ijodi va adabiy merosi tahlil qilinadi. Maqolada Ubaydullaxonning Shayboniylar davlati tarkibidagi siyosiy faoliyati, mamlakat barqarorligiga qo'shgan hissasi hamda ilm-fan va madaniyat rivojiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, shoirning turkiy, forsiy va arab tillarida yaratilgan g'azal, ruboiy, qit'a va boshqa janrlardagi asarlari mazmun-mohiyati, badiiy uslubi va mavzular rang-barangligi ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Ubaydiy devonlarining qo'lyozma nusxalari, ularning tarixiy ahamiyati hamda matnshunoslik jihatidan o'rganilishi haqida ma'lumot beriladi. Tadqiqot natijasida Ubaydiy ijodining o'zbek adabiy merosidagi o'rni, she'riy maktab rivojiga qo'shgan hissasi va davr madaniy jarayonlaridagi o'rni aniqlashtiriladi.

**Kalit so'zlar:** Qul Ubaydiy, Ubaydullaxon, Shayboniylar davri, XVI asr o'zbek adabiyoti, devon, qo'lyozmalar, g'azal, ruboiy, qit'a, adabiy meros, badiiy uslub, tarixiy manbalar, Buxoro xonligi, Mir Arab madrasasi, matnshunoslik.

## АННОТАЦИЯ

В статье анализируются жизнь, творчество и литературное наследие поэта и государственного деятеля Кула Убайды (Убайдулла-хана), сыгравшего важную роль в узбекской литературе и политической жизни XVI века. В статье освещается политическая деятельность Убайдулла-хана в государстве Шейбанидов, его вклад в стабильность страны, а также влияние на развитие

науки и культуры. На научной основе рассматриваются содержание, художественный стиль и тематическое разнообразие произведений поэта на тюркских, персидских и арабских языках, включая газели, рубайи, кыты и другие жанры. Приводятся сведения о рукописных списках диванов Убайды, их историческом значении и текстологическом изучении. В результате исследования выявляется место творчества Убайды в узбекском литературном наследии, его вклад в развитие поэтической школы и роль в культурных процессах этого периода.

**Ключевые слова:** Кул Убайди, Убайдуллахан, эпоха Шейбанидов, узбекская литература XVI века, диван, рукописи, газель, рубайи, континент, литературное наследие, художественный стиль, исторические источники, Бухарское ханство, медресе Мир Араб, текстология.

#### ANNOTATION

This article analyzes the life, work and literary heritage of the poet and statesman Kul Ubaydiy (Ubaydullakhan), who played an important role in the Uzbek literature and political life of the 16th century. The article covers Ubaydullakhan's political activities within the Shaybanid state, his contribution to the stability of the country, and his influence on the development of science and culture. The content, artistic style, and variety of themes of the poet's works in the Turkic, Persian, and Arabic languages, including ghazals, rubaiy, qit'a, and other genres, are also examined on a scientific basis. Information is provided about the manuscript copies of Ubaydiy's divans, their historical significance, and their study in terms of textual studies. As a result of the research, the place of Ubaydiy's work in the Uzbek literary heritage, his contribution to the development of the poetic school, and his role in the cultural processes of the period are clarified.

**Keywords:** Qul Ubaydiy, Ubaydullakhan, Shaybanid era, 16th century Uzbek literature, divan, manuscripts, ghazal, rubai, continent, literary heritage, artistic style, historical sources, Bukhara Khanate, Mir Arab madrasa, textual studies.

## **Kirish.**

Tarixiy manbalar ko'rsatishicha, hukmdorlar orasida adabiyot va madaniyatga mehr qo'ygan, ijod bilan shug'ullangan shaxslar anchagina bo'lgan. Shular ichida Buxoro hokimi Mahmud Sultonning o'g'li — Ubaydullaxon (Qul Ubaydiy) o'zining siyosiy faoliyati bilan bir qatorda sermahsul ijodi bilan ham ajralib turadi. U XVI asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim o'rin egallagan shoir, davlat arbobi va tarjimon sifatida tarixda yorqin iz qoldirgan.

### **Ubaydullaxonning hayoti va siyosiy faoliyati**

Ubaydullaxon Mahmud Sultonning o'g'li bo'lib, Shayboniylar davlati tarkibida yirik mansablarni egallagan. Uning Ko'hna Urganchning qayta tiklanishi, Xorazmning markaziy shaharlaridan bo'lmish Buxoro va Ko'kaldosh madrasasining barpo etilishi kabi bunyodkorlik ishlari mamlakat ravnaqida katta rol o'ynagan.

Shayboniyxonning vafotidan so'ng yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik davrida Ubaydullaxon davlat boshqaruvida barqarorlikni tiklashga harakat qilgan, safaviylar bosqiniga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borgan. Xususan, Xoja Tanish al-Buxoriy ta'kidlaganidek, Ubaydullaxonning kuchli siyosiy faoliyati Mavarounnahrni safaviylar istilosidan saqlab qolgan.

1533–1539-yillarda u Buxoro taxtiga o'tirib, davlatni boshqaradi. Uning hukmronligi davrida Kulliyotlar, devonlar, ilm-fan va madaniy muhit sezilarli darajada rivojlanadi. Ayniqsa, Buxoroda Mir Arab madrasasining qurilishi Ubaydullaxon nomi bilan bog'liq yirik tarixiy voqealardan biridir.

### **Ubaydullaxonning adabiy merosi**

Ubaydullaxon o'z davrining yirik adabiy ziyolilari bilan ijodiy hamkorlik qilgan. U forsiy, turkiy va arab tillarida ijod qilgan, ko'plab g'azallar, ruboiylar, qit'alar yaratgan. Uning asarlari "Ubaydiy", "Qul Ubaydiy" taxalluslari bilan mashhur.

XVII asrga kelib, shoir devonlari keng tarqalgan bo'lib, ularning eng ishonchli qo'lyozmalaridan biri — 1583-yilda Mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko'chirilgan va hozirda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan nusxadir. Unda 310 dan ortiq g'azal, 485 baytli she'r, 21 qit'a, ko'plab ruboiylar jamlangan.

Ubaydiy she'riyati mavzu jihatdan nihoyatda rang-barang. Shoir g'azallarida ishqiy lirika, ma'naviy-axloqiy masalalar, zamondoshlarining zulmi, hayotning beqarorligi kabi mavzular chuqur badiiy ifoda topadi. Shuningdek, ruboiy va qit'alarida hikmat, pand-nasihat, falsafiy mushohadalar ustuvor.

Shoir shoir sifatida o'ziga xos uslub yaratgan: sodda, xalqona, obrazlar boy, ohangdor va ravon bo'lgan badiiy til—Ubaydiy ijodining asosiy o'ziga xos xususiyatlaridir.

Ubaydiy g'azallari o'z zamonasining ijtimoiy hayoti, insoniy tuyg'ulari, muhabbat, sadoqat, dard-u alamlarini yuksak badiiylikda aks ettiradi. Uning she'rlarida samimiyat, obrazlilik, mazmunning soddaligi bilan birga shakldagi puxtalik ham seziladi.

Shoirning mashhur baytlaridan biri:

Bir lahza ko'nglüm ulmad beg'am zamonadın,  
Tuydi zamona mendin men ham zamonadın...

Bu misralar o'z davrining ziddiyatlari va fitnalari orasida shoirning ruhiy iztiroblarini aks ettiradi.

### **Ubaydiy ijodining adabiyotshunoslikdagi o'rni**

Ubaydullaxonning devonlari — XVI asr o'zbek adabiyotining eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Uning ijodi Alisher Navoiy maktabining davomchisi

sifatida baholanadi. Garchi ba'zi manbalarda uning she'riy merosini haddan ziyod soddalikda baholash holatlari uchrasa-da, aslida Ubaydiy ijodining badiiy qudrati va tarixiy ahamiyati muhim ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi.

Hozirda adabiyotshunoslar shoir merosini o'rganishda qo'lyozmalarni taqqoslab, yangi ilmiy nashrlarni tayyorlashmoqda. Ubaydiy asarlarining matnshunoslik jihatidan tadqiqi XVI asr o'zbek she'riyati va Shayboniylar davri madaniy hayotini yoritishda katta ahamiyatga ega.

### **Xulosa**

Qul Ubaydiy — nafaqat davlat arbobi, balki yirik shoir, ma'rifatparvar, o'z zamonasining yetuk ziyolisi sifatida tarixdan munosib o'rin egallagan. Uning ijodi turkiy adabiyotning rivojiga katta hissa qo'shgan, ko'p tilli madaniy merosi esa bugungi kunda ham ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Qul Ubaydiy “Vafo qilsang” Toshkent. “Yozuvchi“ 1994.
- 2.V.A.Abdullaev “O'zbek adabiyoti tarixi” Toshkent. “O'qituvchi” 1967.
- 3.Hofiz tanish al-Buxoriy.Abdullanoma. 1-jild. T.; 1966.